KORRUPSIYA- FUQAROLIK JAMIYATINING TANAZZULI

Aslonova Sabina Akmal qizi -Navoiy Davlat Universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti Sport faoliyati(Kurash)yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada korrupsiya, ya’ni poraxo‘rlik haqida so‘z boradi. Korrupsiya tarixda mavjud bo‘lganligi va unga qarshi qo‘llanilgan jazo hamda hozirgi kunda jahon mamlakatlari poraxo‘rlikka qarshi qo‘llayotgan tajribalari haqida ma’lumotlar berilgan. O‘zbekistonda ham bunga qarshi qo‘llanilgan chora tadbirlar, qabul qilingan qonunlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar:Korrupsiya, illat, tarix, qonun, jahon tajribasi, va bir qancha davlatlar;(Singapur, Xitoy, Daniya, BMT).

Аннотация: В данной статье рассматривается коррупция, а именно взяточничество. Приведены сведения о существовании коррупции в истории, мерах наказания за нее, а также о современных антикоррупционных мерах, применяемых в разных странах. Также освещены меры, законы и инициативыб принятые в Узбекистане для борьбы с коррупцией.

Ключевы слова: Коррупция, порок, история, закон, мировой опыт, несколько стран (Сингапур, Китай, Дания, ООН).

Annotation: This article discusses corruption, specifically bribery. It provides information about the historical existence of corruption, the punishments applied against it, and the anti-bribery practices implemented by various countries today.

The article also highlights the measures, laws, and initiatives taken in Uzbekistan to combat corruption.

Keywords: Corruption, vice, history, law, global experience, several countries (Singapore, China, Denmark, UN).

Ma’lumki, jamiyat taraqqiy etgan sari qonunlar ham rivojlana boradi. Har bir mamlakat o‘z qonuniga egadir. Eng achinarlisi ba’zi odamlar qonunni buzish uchun chiqariladi deb o‘zlarini oqlashga urunishadilar. Misol uchun bir qonunbuzar qonunni buza turib qo‘lga olinadi va jazoga tortiladi, ammo u bu jazodan qutulib qolish uchun himoyachisiga pora taklif qilish oqibatida yana bir qonunni buzadi. Biz bu maqolada poraxo‘rlik haqida gapirmoqchimiz, ya’ni “korrupsiya” Korrupsiya fuqarolik jamiyatidan “daraxt”ni yemiruvchi bir qurtdir.

Gap korrupsiya haqida borar ekan, u jamiyatni turli yo‘llar bilan iskanjaga oladigan daxshatli illatdir. Korrupsiya mamlakat yuksalishiga, demokratiya rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada xalq qoloqlashadi. Ularda inson ongini loqaydlikka, boqimandalikka tobe qiluvchi kayfiyat yuzaga keladi.

Inson o‘z huquq va erkinliklari, burchlarining poymol bo‘layotganini ko‘rib turib unga befarq munosabatda bo‘ladi. Oqibatda bu atrofga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Demokratiya va inson huquqlari deya bong urilayotgan bir paytda jamiyat a’zolarining bunga nisbatan bee’tibor pozitsiyada turishi mamlakatni ichdan yemiradi. Davlat qachon rivojlanishda yuksak cho‘qqiga erishadi, qachon qachon demokratik davlatlar qatoriga qo‘shila oladi? Bu fuqarolarning huquqiy ongiga bog‘liq emasmi? Fuqaro qonunni bilmasa, unga amal qilmasa, uning jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi qanday bo‘lardi? Nega qonunni bila turib unga amal qilmaydi? Bu savollar bizni haligacha o‘ylantirib kelmoqda. Harakat qilish vaqti kelmadimikin. Biz korrupsiyani o‘z jamiyatimizdan yoqotishga harakatni boshlashimiz kerak.

Jahonda korrupsiya atamasiga turlicha yondashishadi, ya’ni “ Korrupsiya- shaxsiy maqsadda foyda olish uchun davlat hokimiyatini suiste’mol qilishdir. Yuridik ensiklopediya mualliflarining ta’kidlashicha, “korrupsiya- mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquqlar va hokimiyat imkoniyatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat”,- deb izohlashadi.Aslidachi korrupsiya faqat davlat mansabdorlari ichidami? Menimcha yo‘q! ular ta’riflashayotgan korrupsiyaning yuqori bir ko‘rinishidir. Etimologik jihatdan “ korrupsiya” atamasi “buzish,pora evaziga og‘dirish” degan ma’noni anglatadigan lotincha “corruption” so‘zidan kelib

chiqqan. Demak, bundan bilish mumkinki, har qanday pora evaziga qilinadigan ish bu – korrupsiyadir.

Tarixga nazar soladigan bo‘ladigan bo‘lsak, korrupsiyaning tag ildizi qadimgi davrlarga borib taqaladi.

Masalan, tarixchi Gerodotning yozishicha, eramizdan avvalgi VI asrda hukmdorlik qilgan Eron shohi Kambiz, Sizam ismli qozini pora olgani uchun terisini shilib olishni va o‘tirgan qozilik kursisini o‘sha teri bilan qoplashni buyurgan . Qozzilik lavozimiga esa poraxo‘rlik nima bilan yakun topishini hamisha yodda tutish uchun Sizamning o‘g‘li Otan tayinlanishi, bundan tashqari, Rossiyada korrupsiyani birinchi cheklanishi Ivan III hukmronlik qilgan davrda yuz berganligi, uning nabirasi Ivan IV esa poraxo‘rlikka qarshi o‘lim jazosini qo‘llaganligi korrupsiyaning qadimdan mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

Mansabdor shaxslarni o‘z mavqeyidan foydalanib boshqalarga ta’sir o‘tkazish orqali vazifasini suiste’mol qilishi korrupsiyani o‘z maqsadini tezroq amalga oshrishning qulay yo‘liga aylantirib qo‘ydi. Mansabdor shaxs ortiqcha qiyinchiliklarsiz, harakatlarsiz osongina o‘z maqsadiga erishadi yoki kimgadir shu orqali osongina yordam beradi. Natijada yordam olgan kishi ham yordam bergan kishi ham bundan minnatdor. Odamlar o‘z mavqeylaridan foydalanib osongina jiyanini yoki boshqalarni biror korxona yoki firmaga osongina joylashtirib qo‘yishadi. Vaholanki, jiyani bu ishga liyiq emas, u hattoki ish yuritishni ham bilmaydi. Endilikda u korxona axvolini tasavvur qilib ko‘ring. Ish yuritishni bilmaydigan boshliq korxonani tanazzulga uchratatadi. Agar bu holat davlat organlarida, qonunchilikda va boshqa turli mansablarni egallashsachi? Ha! To‘g‘ri endilikda davlat tanazzulga yo‘l oladi.

Fuqarolar orasidagi korrupsiyaga nisbatan bo‘lgan ijobiy munosabat, ya’ni korrupsiyani butunlay qoralash o‘rniga uning jamiyatimizda yanada chuqurroq ildiz otishiga sababchi bo‘lishi achinarli holat, albatta. Faqatgina boshqalar oldida korrupsiyani qoralash, ammo aytilgan gaplarga, fikrlarga amal qilmagan holda o‘z mavqeyini suiste’mol qilish, qonunga zid ravishda ish yuritish va buni berkitish, bu ishda kimnidir sherik qilish jinoyat, ammo odamlar ko‘ra turib bu ishlarni takror va takror qilishadi. Lekin demokratik ruhda tarbiyalangan jamiyatda korrupsiyaga yo‘l qo‘yilmaydi. Demak, fuqaralarni demokratik ruhda tarbiyalash kerak. Bundan kelib chiqadiki, tarbiyani birinchi navbatda, o‘zimizdan, ya’ni biz yoshlardan boshlash kerak. Har bir shaxs o‘z mehnati evaziga kun kechirishi, o‘z mehnati evaziga muvaffaqiyatga erishishi, o‘z ishini bajarishda doimo olis bo‘lishi va qonunga tayangan holda ish ko‘rishi kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiya”si zimmasiga pora olganlik uchun eng kam oylik ish haqqining 50 barobaridan 100 barobarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda 5yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Ushbu jinoyat og‘irlashtiruvchi holatlarda sodir etilganda 10yildan 15 yilacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina mas’ul xodimlarning vazifasi emas, yoki davlat rahbarlari bunga javobgar degan fikr umuman joiz bo‘lmaydi, balki bu jarayonda barchamiz birdek harakat qilsak ko‘zlangan natijaga erishishimiz mumkin. Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishda ochiq-oshkoralikka juda katta e’tibor berilmoqda. Amalga oshirilayotgan bu ishlarda esa ommaviy axborot vositalarining ahamiyati juda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.BMT ning Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ma’lumotnomasidan.

2.I.A.Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.O‘zbekiston. 1997-yil.

3.2017-2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, 2017-yil 82-bet.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda qilingan ma’ruzadan. “Xalq so‘zi” 2018-yil 7-dekabr.

5. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston” NMIU, 2017-29b.